



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

## LI BAI BISOTIDAGI GO'ZALLIK

**Sultanova Lola Akmalovna**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy Filologiyasi kafedrası  
2-kurs talabasi.*

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti  
Xitoyshunoslik fakulteti f.f.d(PhD)*

*[lola\\_sultanova@inbox.ru](mailto:lola_sultanova@inbox.ru) +99890-932-90-83*

**Ro'zmatova Sabrina Ashurmatovna**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy Filologiyasi kafedrası  
2-kurs talabasi*

*[sabrina.ruzmatova77@icloud.com](mailto:sabrina.ruzmatova77@icloud.com)*

*+998-33-052-27-18*

**Annotation:** *Through this research, we have shed light on the life and work of the famous Chinese writer Li Tai Bo and the true beauty of his incomparable works. Li Bo was the most famous prominent poet of the Tang Empire, and his written monuments are endless. The poet made a great contribution to the development of literature in the Tang Empire. In the course of our research, we will consider Li Bai's role and poems in this period.*

**Keywords:** *Li Taibo, Taoism, Confucianism, Tang Empire, High Whiteness, Sin Dynasty, 48,000 Poems, 300 Poems of the Tang Period.*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy tadqiqotimiz orqali biz Xitoyning mashhur yozuvchisi Li Tai Bo ning hayoti va ijodini yoritishga hamda tengi yo'q asarlarining asl go'zalligini yoritdik. Li Bo Tan imperiyasining eng mashhur ko'zga ko'ringan shoiri bo'lib, uning yozma yodgorliklari cheksizdir. Shoir Tan imperiyasida adabiyot taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Tadqiqotimiz davomida Li Baining ushbu davrdagi o'rni hamda she'rlarini ko'rib chiqamiz.*

**Kalit so'zlar:** *Li Taybo, daosizm, Konfutsiy qarashlari, Tan imperiyasi, yuksak oqlik, Sin sulolasi, 48 000 she'rlar, Tan davrining 300 poemasi.*

Li bo (ikkinchi nomi - Li Taybo): (701-762) - Xitoy shoiri. Ilk she'rlari romantik ruxda yozilgan. Ularda tabiat manzaralari, samoviy tuyg'ular, yurt qiyofasi, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar aks ettirilgan. [1.] Yoshligida daosizm bilan qiziggan. Inson ozodligini ulug'laydigan bu oqim Konfutsiy qarashlariga qarshi bo'lgan. Mashhur Xitoy shoiri Li Bo an'anaviy sharq adabiyotining mumtoz vakilidir. U xitoy madaniyati yuksak cho'qqiga ko'tarilgan Tan imperiyasi davrida yashab ijod qilgan.[2.]

Turli afsona va sarguzashtlarga boy umr kechirgan shoirning hayoti haqida bugungi kunda ham ko'pgina asotirlar mavjud. Masalan uning ismi haqida. Bo dunyoga kelishidan bir necha kun avval onasi tushida katta oppoq yulduzni ko'radi. Shu sababdan ham dunyoga kelgan chaqaloqning ismini Tai Bai (ya'ni yuksak oqlik)



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

qo'yishdi.

Li Bai bisotiga nazar tashlar ekanmiz unda tabiatni takrorlanmas darajada go'zal tasvir eta olganini anglaymiz. E'tiborga oling-ki bunday beqiyos o'xshatish boshqa hech bir ijodkorda ko'zga ko'rinmaydi. [3.]

Tan davri she'riyatining eng yirik namoyondasi Li Bo o'zidan 1100 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Shundan 900 tasi she'rlardan iborat. Uning 34 ta poemasi mashhur antologiya "Tan davrining 300 poemasi" kitobiga kiritilgan. Li Bo boylik, hukmronlik ketidan quvmagan, xalqparvar shoir bo'lgan. U hukmdorning maslahatchisi bo'lib, uni doimo to'g'rilik, yaxshilikka yetaklashni xohlardi. Ammo unda ozodlikka intilish, erkinlik ruhi juda kuchli edi. "Li Bo she'riyatning alangali va yorgin oqimida xalq ruhiyatining bor, cheksiz boyligini tasvirlay olgan shoir edi". Bejizga zamondoshlari u haqida: "Li Boning beli gaddini bukishga bermaydigan-g'urur suyagidan bo'lgan", deyishmagan. Keyinchalik Sin sulolasi davrida Tan davri ilodkorlaridan 2300 shoirning 48 000 she'rlari nashr etilgan. Bu davr tarix sahifalarida "Oltin asr" nomini oldi va o'sha davrning "oltin" asarlari bugungi kunda ham o'rganilib kelmoqda. Uning she'rlari o'zining sodda tilda yozilgani va oddiy kishilar ham tushuna olishi mumkin bo'lgan tarzda, ammo yurakka tez hamda chuqur kirib bora olishi bilan ham ko'pchilikning e'tiborini qozongan. [4.]

## **ANORNI MADH ETAMAN**

Qo'shnimning sharqqa boqqan  
Darchasining oldida,  
Tillarang nurda porlab,  
O'sadi bir tup anor.  
Bu anorga teng kelmas  
Go'zallikda hech qachon,  
Beg'ubor suv tubida  
Tovlanib turgan marjon. [5.]

Li Baining she'rlarida har bir so'z o'z go'zalligiga egadir. Masalan: anor mevasini shoir shunchaki tasvirlamagan, unga tom ma'noda go'zallik baxsh etib anorning tillarangda porlab o'sayotganini tasvirlagan. Agar bu satrlarga yaxshilab e'tibor qaratsak mashhur shoir aslida ayolning go'zalligini tillarang anorga o'xshatayotganini sezishimiz mumkin. Keyingi misralarda shoir anorning go'zalligiga hattoki beg'ubor suv tagidagi tovlanib turgan marjonga taqqoslayotganini ko'ramiz. Marjon qimmatbaho tosh hisoblanib, qadimdan xitoyning zodagon ayollarining go'zallik



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

timsoli bo'lgan, ular o'z liboslarini shu kabi toshlar bilan bezattirganlar. Buni bir qarashda Xitoy go'zallik tushunchalari bo'lgan 出水芙蓉 (go'zal, suvdan chiqqan lotus kabi) va 如花似玉 (guldek go'zal, nefrit kabi) so'zlaridagi ma'nolar bilan bog'lasak bo'ladi. She'riyat va nasrda ayol go'zalligini madh etuvchi, uni gullarga, nefritga, qorga, suvga, oyga, mevaga va hokazolarga qiyoslovchi metaforalar juda ko'p uchraydi. Hattoki, Xitoy ayollarining go'zal chehralarini shoirlar she'riy misralarda shaftoli mevasiga qiyoslaganlar. [6.]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Li Bo ijodidagi badiiy obrazlar takrorlanmas va nihoyatda turli tuman bo'lib, bu shoirning ichki dunyosi juda go'zal iste'dodi benazir va chinakam o'lmas ijodkor ekanligidan dalolatdir. Shoir Li Bo ijodi Xitoy adabiyoti va madaniyati rivojiga beqiyos darajada hissa qo'shgan va u o'zidan keyin juda katta, sharqona lirik maktab yaratib ketgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. uz.m.wikipedia.org
2. myhero.com
3. cyberleninka.ru
4. 4.www.oriens.uz
5. kh-davron.uz
6. <http://www.google.com>
7. <http://saviya.uz>
8. Rus va Xitoy reklamalarida ayol go'zalligining ideali (kontrastli tavsif tajribasi) // Vestnik RUDN universiteti: filolog bo'lmaganlar uchun rus tili. Nazariya va amaliyot.
9. S.A.Nasirova (2021). Siyosiy metafora (kadrlar haqidagi material misolida zamonaviy KHP siyosati). "Rezent Scientific Investigation" da (69-73-betlar).
10. Xoshimova, S. A. (2020). MAHSULOTCHILARNI TALIM XUSUSIYATLARI XITO TILIDA SUFFIKSAT FOYDALANGAN FE'LLAR. Mamlakatlarda. Tillar. Madaniyat: XI xalqaro ilmiy-amaliy materiallar to'plami konferentsiyalar / Ed. prof. Abueva NN Maxachqal'a: DSTU. 391 s (361-bet).
11. Xoshimova, S. A. (2020). Jonsiz otlarning yasali xususiyatlari zamonaviy xitoy tilida qo'shimchalardan foydalanish. Zamonaviy sharqshunoslik, 2(2), 34-46.
12. Nasirova, S. A. (2019). Zamonaviy xitoy tilining ijtimoiy atamaları semantikasining modifikatsiyasi til. Variant: Revista de Ciencias Humanas y Sociales, (24), 260-273. 7-b. 86-94.